

Date: 5<sup>th</sup> June-2025

## SHARIF BUXORONING GULTOJI

**Boymurodova Nilufar Narzi qizi**

Buxuro davlat universiteti filologiya fakulteti

6-1MAM22-guruh talabasi

**Annotatsiya:** maqolada ma'rifatli va ziyoli jadidlarimizdan Abdurauf Fitratning Buxoro xalqi, yoshlari uchun qilgan xizmatlari, har qarich yerini asrab, yangi ilm o'choqlari yaratishdagi zahmatlari haqida so'z yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, "Dorul-voizn", jadid, Xalq jumhuriyati, yangi usul maktab, "Yosh buxoroliklar", partiya, Istanbul universiteti, maorif.

Haqiqiy jasorat sohibi sanalgan, Buxoro, qolaversa, butun Turkistonning ma'naviy otasi hisoblangan Abdurauf Fitrat aytgan so'zlari, ayniqsa, bajargan amallari bilan hurriyat va adolatni istagandir. Ne-ne alloma-yu, avliyolarga beshik bo'lgan azim Buxoro Fitrat singari buyuk jadidlarni ham o'z bag'rida yetishtirdi. Muqaddas dinimiz Islomda aytlishicha, inson bolasi sof fitratda go'zal xilqatlar bilan tug'iladi. Keyinchalik u yashab voyaga yetuvchi muhit uni yo yaxshi, yo yomon tomonga o'zgartiradi. Taqdirning irodasi tufayli bu inson yigitlik davridanoq umrini pokiza, rizqini halol saqlash va doimo vijdon amriga bo'ysunib, o'z vataniga sodiqlik bilan yashash niyatida o'ziga "Fitrat", ya'ni "sof" deb taxallus qo'ydi. Keyinchalik bu taxallus egasi yurtdoshlari orasida Abdurauf Fitrat bo'lib tanildi.

Turkiston tarixida esa milliy istiqlol harakati faoli, jadidchilik harakati namoyondasi, buyuk davlat arbobi, zamonaviy o'zbek she'riyatining asoschisi, jangovor publisist, jurnalist, betakror dramaturg, birinchi o'zbek professori Buxoro va Turkiston maorifining olg'a siljishiga doir muhim ishlarni amalga oshirib, o'zidan o'chmas iz qoldirdi .

Fitrat Istanbul universitetida o'qish bilan birga u yerdagi "Dorul-voizn" madrasasida ham dars bergen. Bu madrasa Buxoro va Turkistondan o'qishga borgan yoshlarni universitet ta'limiga tayyorlagan. Buxoroga qaytgach esa, usuli jadid maktablari ochish va Buxorodagi madaniy hayotni yo'lga qo'yishga shoshiladi. U haqida Sadriddin Ayniy shunday yozadi: "Bu orada Fitrat va Atoxo'ja Buxoroga qaytdilar. Tabiiyki, ular jadid maktablari bilan bog'lanib, o'qituvchilar tomonidan bordi-keldi qilib, maktablar ishini yaxshilash bo'yicha turli tadbirlarni amalga oshirdilar, muallif va yoshlarga maslahat berdilar"<sup>1</sup>

"Yosh buxorolilar" partiyasi tashkil qilinib, Fitrat bosh kotib etib tayinlandi. Ular amirni tartibga chaqirish orqali Buxorodagi siyosiy va madaniy tizimni islohotlar vositasida o'zgartirmoqchi bo'ldilar. Ammo amir qurolli kuchlari tomonidan namoyishchilar o'qqa tutilgach, Fitrat o'z faoliyatini Samarqandda davom ettirishga majbur bo'ldi. Buxoroda Xalq jumhuriyati qurilgach Fitrat davlat ishlarida faoliyat

<sup>1</sup> H.Boltaboyev. Abdurauf Fitrat Jadidlar.YOSHLAR NASHRIYOT UYI Toshkent-2022.5-6b.

Date: 5<sup>th</sup> June-2025

yuritishi uchun 1921-yilning 9-martida chaqirib olindi. Buxoroga keliboq Fitrat tashkilot tajribasidan kelib chiqib, Buxoro ilmiy jamiyatini tuzdi, mahalliy aholi va ulamolar hamkorligida turli qo‘lyozmalarini to‘plashga kirishdi. Jamiyatning “Anjumaniy tarix” sho‘basi tomonidan yozilgan “Buxoro arki tarixi” asarini chop ettirdi. Fitrat Buxoro xalq jumhuriyatining Maorif noziri sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi. Buxoroda yangi usul maktablarini joriy qilish bilan birga musiqa va qishloq xo‘jaligi o‘quv yurtlarini tashkil qilishga erishdi. Bu o‘quv yurtlari uchun dastur va o‘quv adabiyotlari nashri bilan shug‘ullandi. Shuningdek, Fitrat Buxoro jumhuriyati hamda Turkiston ASSR o‘rtasida o‘quv yurtlari va maktablar uchun darsliklar tuzish borasidagi ishlarga ham mutasaddilik qiladi. Iqtidorli talabalarni Turkiya, Germaniya va Rossiya shaharlaridagi yetakchi universitetlarga o‘qishga yubordi. Nozirlar kengashining qaroriga binoan Buxoro jumhuriyatida turk (o‘zbek) tilini davlat tili deb e’lon qildirdi. Mavjud bir necha teatr truppalari asosida Maorif xalq nozirligi tasarrufida bo‘lgan Davlat teatri tashkil qilindi, teatr san’ati ishlariga rahbarlik qilish uchun taniqli rejissor va sahna ustasi Mannon Uyg‘ur Buxoroga taklif etildi. 1921-yildan teatr ishlariga ko‘maklashish va “Buxoro axbori” gazetasiga muharrirlik qilish uchun shoir Cho‘lpon Buxoroga jalb qilindi. Shu yili 23-sentabrda Fitrat tahriridan chiqqan “Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyati Konstitutsiyasi” qabul qilindi. Xalq xo‘jaligining ravnaqi yo‘lida turli xil iqtisodiy islohot va tadbirlar o‘tkazishga rahbarlik qildi, mamlakat jug‘rofiy hududlarini belgilash, Amudaryo flotiyasining vazifalarini jumhuriyat maqsadlariga yo‘naltirish, frunzechilar tomonidan to‘pga tutilib vayrona holiga kelgan Buxoro me’moriy obidalari va shahar suv inshootlarini tiklash ishlariga sho‘ng‘ib ketdi.

Bu davrda Fitrat rasman tashqi ishlar xalq noziri, Maorif noziri, Xalq xo‘jaligi kengashining raisi, Markaziy Ijroiya Qo‘mita raisining o‘rinbosari kabi mas’ul vazifalarini bajarishi davomida milliy madaniyat va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun cheksiz ahamiyatga molik ishlar qildi. Fitrat sobiq ittifoq hukumati huzuridagi Buxoro jumhuriyati Muxtor vakilligi tomonidan Moskvaga chaqirib olindi va u yerda chiqayotgan “Uchqun” hamda “Buxarskaya jizn” kabi vaqtlidashalar ishlariga jalb qilindi, Lazarevlar jonli Sharq tillari instituti (hozirgi Moskva davlat universitetining Osiyo va Afrika instituti)ga ma’ruzalar o‘qish uchun taklif qilindi va u yerda professor unvoniga sazovor bo‘ldi.

Fitrat Moskvadan qaytib keliboq, Toshkentda yana ijodiy va ilmiy faoliyatga berildi. Uning O‘zbekiston Xalq maorif nozirligining ilmiy sho‘rosida barmoq she’r tizimi haqidagi ma’ruzasi, Farg‘ona, Namangan va Buxoro bo‘ylab mumtoz adabiyot durdonalarini to‘plash bo‘yicha ilmiy ekspeditsiyada ishtirok etishi, so‘ngra yaratilgan bir necha tadqiqot, maqola, darslik va qo‘llanmalari uning bu davr faoliyati eng samarali ijodiy bosqichlardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Fitrat Buxoroni faqatgina tarixiy va diniy markaz sifatida emas, balki ilm-fan, adabiyot va taraqqiyot gultoji sifatida tasvirlagan. Bugungi kunda Fitrat merosi yosh avlod uchun bebaho ma’naviy boylik bo‘lib, u nafaqat o‘zbek, balki butun muslimon Sharqi ma’rifatparvarlik harakatining yorqin namoyondalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Date: 5<sup>th</sup> June-2025

Demak, Fitratning tuganmas ma'naviy dengizidan kelajak avlod hali yillar va asrlar osha ilm ma'rifat suvini ichadi. Shu bois, Fitratni haqli ravishda "Buxoroning gultoji" deb atash mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat. Yoshlar nashriyot uyi. –Toshkent,2022. 5-14b.
2. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. –Toshkent:O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. Qosimov B. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent “MA’NAVIYAT” 2004. 355-384b.
4. <https://tafakkur.net>.